

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**10.00.06 – QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA
TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK IXTISOSLIGI BO‘YICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOV LARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2023

Annotatsiya:

Dastur 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mutaxassisliklarining 2019-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

TUZUVCHILAR:

Mirzayev I.K.	–	SamDU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
Xasanov A.	–	SamDU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Dastur Filologiya fakultetining 2023-yil 26-oktabrdagi № 2-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mazkur dastur ona til va chet til (ingliz, frantsuz, nemis) hamda turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi asosida tuzilgan. Fonetika, leksikologiya, grammatika, til nazariyasi va boshqa fanlar bo'yicha talabalar tinglagan nazariy kurslarga asoslangan ushbu dastur ona til bilan boshqa chet til dalillarini tizimli bayon qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki tilning, jumladan, adabiyotning ham o'ziga xos xususiyatlari, eng avvalo, uni boshqa til va adabiyot bilan qiyoslaganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Har qanday qiyoslash asosini qiyoslanayotgan dalillar tashkil qiladi va qiyoslash asnosida tillarga xos umumiy va xususiy jihatlar aniqlanadi. Hozirga qadar u yoki bu tilda qancha fonema, so'z birikma, fe'l zamonlari, mayl va boshqalar borligi aniq emas. Ana shu noaniqliklarni bartaraf etishda qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik katta rol o'ynaydi.

Dasturda tilning barcha asosiy birliklari, xususan, fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika va boshqalar o'z ifodasini topgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik qamrab olgan nazariy ma'lumotlar quyida keltirilgan:

I. Qiyosiy adabiyotshunoslik fani bo'yicha:

Qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy tushunchalari: Qiyosiy adabiyotshunoslikning predmeti, maqsadi, vazifalari, adabiyotshunoslikning o'rni.

Adabiyotshunoslikning genetik kontakt aloqalari: tashqi va ichki aloqalari; adabiyotlararo aloqa shakllari.

Tipologik o'xshashliklar: ijtimoiy-tipologik o'xshashliklar; psixologik-tipologik o'xshashliklar.

Qiyosiy tahlil masalalari: qiyoslashning muqobilligi, izchilligi, adabiyotlararo jarayonni davrlashtirish, milliy adabiyotlarning xos xususiyatlari.

II. Chog'ishtirma tilshunoslik fani bo'yicha:

Qiyosiy tipologiyaning boshqa tilshunoslik fanlari orasidagi o'rni; tillarning tasnifi; qiyosiy va tipologik tilshunoslik; til universalialari; qiyosiy tipologiyaning vazifalari; qiyosiy-tipologik tadqiqot metodlari.

Fonologiya va orfografiya. Fonemalar soni masalasi; fonologik belgi va tillararo interferentsiya; fonemalar farqlovchi belgilarning xususiyatlari; unilarning pozitsion o'zgarishlari; vakalizm va konsonantizm; ikki tilda bo'g'inlarning turlari; urg'u, intonatsiya; garafik asimmetriya turlari, orfografiya va tilning boshqa aspektlari.

Grammatika. Analitizm va sintetizm; morfologiyada asimmetriya; so'z turkumlari, so'z turkumlari transpozitsiyasi; so'z turkumlarining semantik

kategoriyalari; ikki tilda jins va son; modallik, mayl, nisbat kategoriyalari; sintaksis; sintaktik aloqa turlari; gap bo‘laklari va so‘z turkumlari; sodda, murakkab va qo‘shma gaplar; gapning kommunikativ turlari; so‘z tartibi funksiyalari; gapning aktual bo‘linishi.

Leksika va stilistika. Leksikani qiyosiy o‘rganish aspektlari; tilning nominativ vositalar; affiksatsiya; so‘zning motivlanganligi, leksik belgi asimmetriyasi; leksik asimmetriya turlari; omonimiya antonimiya; frazeologiya; giperonim va giponimlar; so‘z va kontekst; stilistika; ikki tilda stillar tizimi; ikki tilda leksik va stilistik tafovutlar; birlamchi nominatsiya, takroriy nominatsiya; nutqda tejamkorlik va ortiqchalik; fikrning modal doirasi.

III. Tarjimashunoslik fani bo‘yicha:

Tarjimaning ta‘rifi; tarjima madaniyatlararo aloqa sifatida; tarjimaning turlari; tarjimashunoslikning shakllanishi va vositasi taraqqiyoti; tarjima nazariyasi ilmiy fan sifatida; tarjimonning kasbiy kompotentsiyasi; tarjimaning pragmatik aspekti; afekvat tarjima masalasi; leksik muqobillik turlari; baynalminal so‘zlar va tarjimonning “soxta do‘stlari” tarjimasi; atoqli otlar tarjimasi; xos so‘zlar tarjimasi; leksik-grammatik transformatsiyalar; konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya; kompensatsiya; grammatik transformatsiya: gap bo‘laklarini almashtirish, so‘z turkumlarini almashtirish; badiiy tarjimaning vositachilik funksiyasi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуазизов А.А., Бушуй А.М., Бушуй Т.А., Салиева М.А., Сиддикова И.А. История лингвистической типологии. – Ташкент: 2016. – 176 б.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 608 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода / Л.С.Бархударов. – М.:Междунар. Отношения, 1975. – 240с.
4. Брейс Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский/ Е.В.Брейс. – М.:Изд-во УРАО.2000. – 207.с.
5. Бушуй Т, Рузикулов Ф. Краткий курс сравнительной типологии. –Ташкент, 2015. – 187 б.
6. Вайбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения // Рус. яз. за рубежом. 1972. № 3, – С. 98-100.
7. Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы)/ В.С.Виноградов. - М.: Изд-во ин-та общ. сред. образования РАО, 2001. - 224с.
8. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – М.:Высш. Шк., 1978. 350 с.
9. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. 2-е изд.,исправ. и доп. – М., 1986. – 415с.
10. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Москва: Просвещение, 1989. – 288с.
11. Комиссаров В. Н. Новые тенденции в переводоведении/ В.Н.Комиссаров// Информационно-коммуникативные аспекты перевода: сб, науч, тр. Ч. 1. Н. – Новгород: НГЛУ им.Н.А. Добролюбова, 1997. – С.167.
12. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода: учеб. Пособие/ В.Н.Комиссаров. – М.; 1999. – 136с.
13. Комиссаров В. Н. Перевод как объект лингвистического описания/ Комиссаров В. Н.//Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Междунар. отношения, 1978. – С.3-15.
14. Латышайев Л.К.Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания/ Л.К.Латышев. – М.:Просвешение, 1981.
15. Ломтев Т.П. Фонология современного русского языка. – М.,1972.
16. Милевский Т. Предпосылки типологического языкознания // Сб. Исследования по структурной типологии. – М., 1963.
17. Паморозская Н.И.Роль слов-реалий в создании культурного фона художественного произведения // Лексика и культура. – Тверь, 1990. - 439с.

18. Пешковский А.М. Десять тысяч звуков. Опыт звуковой характеристики русского языка как основы для эвфонических исследований//Сб. Методика родного языка, лингвистика, стилистика, поэтика. – Л., 1925.

19. Рецкер А.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода/ – М., 1974. – 216с.

20. Саломов Ф. Тил ва таржима. –Т. Фан, 1966. - 380 б.

21. Серебренников Б.А. Вероятностные обоснования в компаративистике. – М., 1974. 53с.

22. Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – Киев: Выща шк., 1984. – 241.с.

23. Томахин Г.Д. Реалии в языке и культуре // Иностран.яз. в шк. 1997. №3.

24. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960. – С.286-299.

25. Федеров А.В. Основы общей теории перевода/ – М., 1983.

26. Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. – Т., 2018. – 274 б.

27. Ширяев А.Ф. Синхронный перевод / – М., 1979.

28. Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. – М., 1981. – 52с.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS
FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Maksimal ball	100